



ARTISTIC FEATURES OF THE LITERARY HERITAGE OF NURMUHAMMET ANDALIB

Haytboyev Avazbek Oybek o'g'li

Student of group 2-D, turkman language and literature program
faculty of philology Nukus state pedagogical institute named after
Ajiniyoz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18884934>

ARTICLE INFO

Received: 28th February 2026

Accepted: 04th March 2026

Online: 05th March 2026

KEYWORDS

Epic poem, takhmis, nazira tradition, tazmin, ghazal, muhammas, musaddas, lyric poetry, translation, Oghuz history, classical literature.

ABSTRACT

This article analyzes the life, creative characteristics, and literary connections with Eastern literature of Nurmuhamet Andalib, a prominent representative of 18th-century Turkmen classical literature. The poet's contributions to epic poetry, ghazal writing, composition of takhmis, and translation activities are evaluated from a scholarly perspective. In addition, the social content and artistic value of his works are examined.

NURMUHAMMET ANDALIBNING ADABIY MEROSINING BADIY XUSUSIYATLARI

Haytboyev Avazbek Oybek o'g'li

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti
Turkman tili va adabiyoti yo'nalishi 2-D guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18884934>

ARTICLE INFO

Received: 28th February 2026

Accepted: 04th March 2026

Online: 05th March 2026

KEYWORDS

Doston, taxmis, nazirachilik, tazmin, g'azal, muhammas, musaddas, lirika, tarjimonlik, o'g'uz tarixi, klassik adabiyot.

ABSTRACT

Ushbu maqolada XVIII asr turkman klassik adabiyotining ko'zga ko'ringan vakili Nurmuhamet Andalibning hayoti, ijodiy xususiyatlari va uning Sharq adabiyoti bilan aloqasi tahlil qilinadi. Shoirning dostonchilik, g'azalchilik, taxmis yozish hamda tarjimonlik sohalaridagi xizmatlariga ilmiy jihatdan baho beriladi. Shuningdek, uning asarlarining ijtimoiy mazmuni va badiiy qimmatini ko'rsatiladi.

Nurmuhamet Andalib XVIII asr turkman adabiyoti tarixida usta dostonchi, iqtidorli tarjimon, mohir nazirachi shoir sifatida taniladi. U nafaqat o'z xalqi orasida, balki qoraqalpoq, o'zbek, qozoq, tojik va boshqa xalqlar orasida ham keng tanilgan. Uning asarlarini turli xalqlar

katta qiziqish bilan o'qigan. To'g'ri, o'tmishda boshqa Andalib taxallusi bilan asar yaratgan shoirlar ham bo'lgan. Ulardan XVIII–XIX asrda yashagan ozarbayjon shoiri Andalib Qorajadog'ining, XIX asrda yashagan o'zbek shoiri Devona Andalibning va



boshqalarning nomlarini ko'rsatish mumkin.

Andalib Qorajadog'i "Layli-Majnun" nomli kichikroq poemani, Devona Andalib esa "Shanoma" asarini yozgan. Bularning ijodi mazmun jihatdan ham, bayon etish usuli jihatdan ham Nurmuhamet Andalibniki bilan teng kelmaydi, hatto unga yaqinlashmaydi ham. Nurmuhamet Andalib ustalik, yetuklik jihatdan boshqa Andaliblardan ancha yuksak turadi.

Turkman klassik shoirlarining ko'pchiligida bo'lgani kabi, Andalibning hayot yo'liga oid ma'lumotlar ham juda oz saqlanib qolgan. Har holda, yurtimizning turli chekkalaridan yozib olingan ma'lumotlar, shoirning o'z adabiy merosi asosida bir qancha narsalarni aniqlashga imkoniyat bor.

Serdar, Bereket, Ko'neürgench tumanlaridan to'plangan ma'lumotlarda ayrim hikoyachilar, xonandalar, baxshi-sozandalar Andalibning taxminan XVIII asrda yashab o'tganligi, uning Gul ismli bir qizga oshiq bo'lganligi, uni sevganligi, shu ishqida sarson-sargardon bo'lganligi uchun o'ziga Andalib (Bulbul) taxallusini olganligi haqida xabar beradilar. Shuningdek, ular shoirning "Layli-Majnun", "Yusuf-Zulayho", "Zaynalarab", "Nasimiy", "Sag'diy-Vaqqos" nomli asarlar yozganligini eslatadilar.

Andalibning o'z asarlarida beriladigan ma'lumotlarga mos keladi. Shoir poema va dostonlarining kirish qismida yoki boshqa bir joyida o'zi haqida ba'zi yozuvlarni qoldirgan.

Andalib "Zaynalarab" dostoni kirish qismida o'zining Suyunxon naslidan ekanligini aytib o'tadi:

Andalibni yo'lda qilma muhtarib,
Jannati-rizvonni aylasa nasib.

Yaxshilarga hurmat aylasa G'arib,
Suyunxon avlodi elidan bo'lur.

Shoir "Nasimiy" nomli poemasida va "Yusuf-Zulayho" dostoni kirish qismida esa, Shirg'ozixon zamoyida Urganch viloyatining G'oramozi qishlog'ida tug'ilganligi va shu yerda yashaganligi, asl ismi Nurmuhamet bo'lib, G'arip, Andalib degan taxalluslarni olganligi haqida ma'lumot beradi:

Ismim edi Nurmuhamet G'arip,
So'zda taxallusim edi Andalib.
Shahrimiz Urganch viloyat edi,
Xonimiz Shirg'ozi himoyat edi.
Asl makonimki G'oramozi, Odamon ayshda qish-u yozdir.

Andalib "Yusuf-Zulayho" asarini yozgan vaqtida, ya'ni Shirg'ozi Xivada xonlik qilgan davrida o'zining ellik besh yoshdalgini ham eslatib o'tadi:

Barcha xaloyiq ichida yomon ishim,
Yetdi ellik beshga mening ham yoshim.

Agar shu ma'lumotlar o'rinli bo'lib, Shirg'ozi taxtga chiqqanda shoir ellik besh yoshda bo'lgan bo'lsa, unda Andalib 1660-yilda tug'ilib, XVIII asrning 40-yillarida vafot etgan deb aytish mumkin.

Shoirning yoshlik, o'smirlik yillari G'oramozi o'tadi. U boshlang'ich ilmni qishloqda oladi. So'ngra esa, u Xivadagi madrasalarning birini tugatadi. Shoir og'ir kasallik sababli, Xivaga ko'chib ketishga majbur bo'ladi. Ba'zi asarlarida keltiriladigan: "Andalibi-zor", "Andalibi-hasta", "Andalibi-balokash", "Andalibi-bechora" kabi jumla uning bir og'ir kasalga duchor bo'lganligini bildiradi. Faqat bir bemorlik emas, uning ustiga shoir butun umrini qashshoqlikda, yetar-yetmaslikda o'tkazadi. U asarlarida bu haqda tez-tez eslatadi:

Barchalar ichra men edim zebun,



Aqlim edi goh xush, gohi devon.
Goh xarobotda ishim, gohi fig'on,
Kulbayi ahzon edi gohi makon.
Bu sifat umrimni o'tkardim, darig,
Nuri hidoyatni netay tutdi meni.

Nurmuhammet Andalib o'z davrining turli ilmlari bilan qiziqqan. U Sharqning tarixini, falsafasini, adabiyotini, shuningdek arab, fors tillarini yaxshi bilgan. Bu ilmlardan yaxshi xabardor bo'lganligini shoirning asarlarida yuritiladigan fikrlar to'liq tasdiqlaydi. Shoir o'g'uz tarixi, o'g'uz madaniyati bilan yanada chuqur qiziqqan. U yo'qolib ketgan deb taxmin qilinadigan o'g'uz alifbosini o'rganish, uni tiklash haqida g'amxo'rlik qilgan.

Andalib Sharqning ko'zga ko'ringan so'z ustalari Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Imodiddin Nasimiy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va boshqalarning adabiy merosini puxta o'zlashtirgan. Shoir ularga katta hurmat qo'ygan va ularni o'zining ustozlari deb hisoblagan.

Shoir tarjimonlik ishi bilan ham jiddiy shug'ullangan. Bizga ma'lum bo'lishicha, Xiva adabiy muhitida o'tmishda arab, fors va boshqa tillardan badiiy asarlar, ilmiy kitoblarni tarjima qilish ishi olib borilgan. Bu sohadan bir qancha ko'zga ko'ringan olimlar, shoirlar yetishib chiqqan. Andalib bu an'anaga ergashib, bir qancha asarlarni turkman tiliga o'tkazgan. U Imodiddin Nasimiyning arab tilidagi bir qancha she'rlarini, XI-XII asrlarda yashab o'tgan Ahmad Jomiyning she'rlarini, shuningdek "Mirza Hamdam" nomli xalq ijodiyoti asarini fors tilidan turkman tiliga tarjima qilgan. Turkman adabiyoti tarixida Andalibdan boshqa tarjimonlik ishi bilan shug'ullangan shoirlar ham

bo'lgan. Kelajakda ularning qilgan ishlarining chuqur o'rganilishi va adabiyotni boyitishga, adabiy aloqalarni rivojlantirishga qo'shgan hissalarining aniqlanishi kerak.

Andalib kun kechirishini ta'minlash uchun dehqonchilik ishlari bilan shug'ullangan. U dehqon odam bo'lgan. Shoirning oilaviy hayoti, mashg'ul bo'lgan kasb-kori, uning avlodlari kimlar ekanligi, qayerda yashaganliklari haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Bu esa uning adabiy merosining to'liq va to'g'ri o'rganilishida ma'lum darajada qiyinchilik tug'diradi.

Andalibning zamondoshlari Shobanda, Magrupiy, Shaydoyi, Maqtumquli va boshqalar bilan aloqada bo'lgan bo'lishi mumkin. Biroq, o'sha aloqalar haqida hech qanday ma'lumot saqlanib qolmagan.

XIX asr turkman klassik adabiyoti vakillarining Andalibni yaqindan taniganligi, uning adabiy merosi bilan yaqindan tanish bo'lganligi ma'lum narsa. Sababi shoirning asarlari, ayniqsa "Layli-Majnun" hamda "Yusuf-Zulayho" dostonlari xalq orasida keng tarqalgan.

Uning adabiy merosi bilan o'z zamondosh va o'zidan keyingi bir qancha qoraqalpoq, o'zbek, tojik va boshqa xalqlarning shoirlari yaqindan qiziqqanlar. Muhlisiy va Munis Andalibning g'azali asosida taxmis yozgan bo'lsa, Zokirjon Furqat o'zining "Saydning qo'y, sayyod" nomli musaddasini uning ta'siri bilan yaratgan.

Nurmuhammet Andalibning boy va ko'p qirrali adabiy merosi bor. U turli xildagi bir qancha boy mazmunli, yuksak badiiyatli asarlarni yaratgan. Shoir bir qancha she'rlarni, uchta poema, beshta dostonni yaratgan. Albatta, bular



hozircha uning bizga ma'lum bo'lgan asarlaridir. Andalibning yana bir qancha asarlari bor bo'lishi mumkin. Chunki tadqiqotlar o'tkazilayotgan vaqtda, shoirning asarlari muntazam ravishda topilmoqda. Qo'shni davlatlarning qo'lyozmalar xazinasi ma'lumotlari chuqur ko'zdan kechirilib, shoirning adabiy merosi puxta o'rganilsa, uning asarlari sonining yana ham ortib borishi shubhasizdir.

Andalib turli mavzularga murojaat qilgan. U nazirachilikka ko'proq moyil bo'lib, Sharqda mashhur bo'lgan asarlarning bir qanchasini qayta ishlagan. Shular asosida XVIII asr turkman hayotining muhim masalalarini ko'tarib chiqqan, ular haqida o'z qarashlarini bayon etgan.

Hajm jihatdan unchalik ko'p bo'lmasada, she'r shaklida yozilgan asarlar Andalib ijodida muhim o'rin tutadi. Uning g'azal, murabba, muhammas, musaddas, taxmis shaklida yozilgan qirqqa yaqin she'ri hozir bizga ma'lum. Ular turli mavzularni o'z ichiga oladi.

Andalib g'azallarida qadimdan kelayotgan an'analarga ergashish bilan birga, uning mazmunini boyitishga, bayon etilish usulini, tilini yengillashtirishga harakat qilgan. Uning "Chendan-chendan", "Jabri-jafoga", "Bo'ldi Andalib", "Top ochdi" nomli g'azallarida bunday urinishlar yanada yaxshi seziladi. Shoir ta'riflayotgan go'zal sayrga chiqqanda, tabiatdagi barcha go'zallik uning husnu jamoliga hayron qoladi, unga ta'zim qiladi:

Keldi ul sarvi shahi noz ila xandon-xandon,

Oldi ko'nglimni navozish bilan chendan-chendan.

Qoldilar sayr qilarda yuzu la'lu labiga,

Gul boqib, g'uncha ochib og'zini hayron-hayron.

Shoirning "Bo'ldi Andalib" nomli g'azali uning hayoti ohangida yozilgan bo'lib, unda o'zining yolg'iz qolib, og'ir kunda, yetar-yetmaslikda kun kechirganligini, hatto yil o'tishga, odatiy yashashga yaxlit bir uy-joyining ham bo'lmaganligini afsus bilan xabar beradi. Albatta, o'sha davrda yuz-minglab mehnatkash xalq shoirning tortgan jabrini boshdan kechirgan. Shuning uchun ham u Andalib tomonidan badiiy asarga o'tkazilgan. Ushbu g'azalni to'liqligicha ko'rib chiqaylik:

Tosh era aylab vatan, toshboqqa bo'ldi Andalib,

Tuproqqa bag'rin bosib, qurbaqqa bo'ldi Andalib.

Bo'lmasa qurbaqqa, toshboqqa o'sha nafs yomon,

Ne uchun bir uyda doim yakka bo'ldi Andalib.

Qanoatsizlik tutib a'zosidan balu-perin,

Bu uqubat birla tilka-tilka bo'ldi Andalib.

Do'st bo'lganlar eshitsalar sovuqdan o'lganini,

Kulishib ayturlar, o'lsa hekge bo'ldi Andalib.

Bo'lsa qish, urar kovakda, yoz bo'lsa yozilur,

Goh boyqush bo'ldi, gohi chekka bo'ldi Andalib.

Navro'zga bag'ishlangan "Top ochdi" g'azalida bahor faslining go'zal manzarasi tasvirlanadi. Sahrolarning rang-barang gullarga bezanishini, butun tabiatning, barcha jonivorlarning uyg'onishini, dunyoda shovqin-



suronning ortishini u birma-bir sanab o'tadi.

Andalib murabba' hamda muhammaslarining ko'pchiligini nazirachilik usulida yozgan. Nazirachilik Sharq adabiyotida keng tarqalgan bo'lib, u adabiy aloqaning va adabiy hamkorlikning bir ko'rinishidir.

Shoirlar mavzu tanlashda, uni bayon etishda ma'lum-ma'lum tamoyillarga ergashganlar. Unda tazmin, taxmis, tashtir, shiru shakar, munozara, xamsa tuzish, nomo yozish, payrav kabi usullarda asar yozish yuzaga chiqqan.

Shoir "Yorning firoqi" nomli murabba'ni tazmin usulida yozgan. U Boborahim Mashrabning she'ridan bir band olib, shuning mazmuniga, bayon etish shakliga muvofiq ravishda uning davomini ettirgan. Oddiyroq qilib aytganda, bu she'rning bosh bandi Mashrabniki, davomi Andalibniki bo'lishi kerak. Bir shoirning o'z zamondoshlarining yoki o'zidan oldingilarning she'rlaridan bir parcha olib, uni o'z ijodida qo'llanishiga tazmin deyiladi. Bunday usulda boshqa turkman klassik shoirlari bir qancha asarlar yaratgan. Andalib bu asarida Mashrabnikiga o'xshash fikr yuritib, u bilan bir tamoyilga ergashgan. She'rning davomida "G'am qilichi birla boshim chopar men", "Bo'ldi qorong'u ikki jahonim" kabi yangi o'xshatishlar ham uchraydi.

"Chig'ir" (Suv charxpalagi) she'rini nafaqat Andalib ijodi bo'yicha, balki butun klassik adabiyot bo'yicha dehqonchilik mavzusida yozilgan eng yaxshi asar deb hisoblash mumkin. Shoir bu she'rda o'sha davrda keng qo'llanilgan juda oddiy sug'orish asbobi bo'lgan chig'irni madh etadi. U

chig'irning ishlashini, shu asbob orqali ekin maydonlarining sug'orilishini, uning yordamida dehqonlarning ekinlardan, bog'-rog'lardan turli hosillarni olishlarini birma-bir sanab, uning ovozi bulbulga tenglaydi, o'zini esa, topilmas qimmatbaho narsa deb hisoblaydi. Shuning uchun unga ikki yuz tilla bersang, ozlik qiladi deydi. Shoir chig'irning qadrini bilishni, undan foydalanishni uqtiradi. Chig'ir dehqonchilikda o'tmishda keng qo'llanilgan va bir qancha yerlarni sug'orilgan. Shoir yetishgan mo'l hosilni shunday bayon qiladi:

Ham uzum paydo bo'lur, anjir ham zardolilar,

Olma, mayiz, xarbuza-tarvuz, qorolilar.

Pistayu anorlar, nashvatiyu shaftolilar,

Sovsan-u sunbul, qizil gul ochilib, gul-lolalar,

Ushbu gullarni ko'rib, maston bo'lur chig'ir.

Shoir chig'irning qadr-qimmatini bilmaydiganlarni, u bilan shug'ullanmay, dehqonchilikka e'tibor bermay, suv yo'q degan bahonani topgan bo'luvchilarni qoralaydi:

Kimki bilmas bu chig'irning lazzatin hayvon erur,

Talmurib o'tirsa "suv" deb, ahmoqu nodon erur.

Suv charxpalagi yani (chig'ir) nima? Suv charxpalagi — bu oqayotgan suv kuchidan foydalanib aylanuvchi katta g'ildirak bo'lib, u mexanik energiya hosil qilish uchun ishlatiladi. U qadim zamonlardan boshlab don maydalash, suv chiqarish va boshqa xo'jalik ishlarida qo'llanilgan.



Andalib ishq-muhabbatga oid she'rlarida, ko'pincha, Sharq adabiyotida ishlangan mavzularga murojaat qilib, o'zi ta'riflayotgan go'zalni tayyor obrazlar, o'xshatish va taqqoslashlar orqali tasvirlagan bo'lsa ham, ularni xalq adabiyotiga yaqinlashtirishga, imkon qadar sodda, oddiy tilda o'zicha bayon etishga harakat qilgan. Uning "O'rgulay", "Dilbar" she'rlari juda ravon, yengil o'qiladi. Bular shoir nozik tuyg'ularni shoirona tasvirlaydi. "O'rgulay" muhammasida shoir so'roq va murojaatni, mubolag'ani, kichraytirishni, ichki qofiyani juda o'rinli qo'llay olgan:

Ey, shahi nozik tabiat, gul yuzingdan o'rgulay.

Ey, qamar yuzluk, shakar-shirin so'zingdan o'rgulay.

Xush qalam ul ikki qoshiy g'unchangdan o'rgulay.

Ishva-noz aylab boqan nargis ko'zingdan o'rgulay,

Ham yuzingdan, ham ko'zingdan, ham o'zingdan o'rgulay.

Boshqa bir she'rda shoir takroriy so'zlarni o'rinli qo'llagan:

Hay-hay, ne tushibdir bu xuromon qaddi-qomat,

Bah-bah, ne go'zalsan, ne ajoyib, ne qiyomat.

Turkman adabiyoti tarixida Nurmuhamet Andalib eng ko'p taxmis yozgan shoir hisoblanadi. U yigirmadan ortiq taxmisning muallifidir. Nazirachilikning bu turiga moyillik bilan shoir turkman adabiyotining Sharq adabiyoti bilan adabiy hamkorligi va adabiy aloqalarini rivojlantirishni ko'zda tutgan bo'lsa kerak.

Taxmis Sharq adabiyotida, shuningdek turkman adabiyotida tez-tez murojaat qilingan usul bo'lib, uning

o'ziga xos qoida-qonunlari, ko'zda tutilgan tamoyillari bor. Taxmis qaysidir shoirning o'zidan oldingi yoki zamondosh shoirining g'azali asosida yozilgan asardir. Bunda u qaysidir shoirning g'azalini olib, uning har bir baytining oldidan uch misra qo'shadi. Unda bu misralar oldingilar bilan mazmuni, vazni, qofiyasi, hatto bayon etilish usuli bo'yicha ham mos kelishi, unga yaqin bo'lishi kerak. Aniqrog'i, g'azalning oldidan qo'shilgan yangi misralar oldingilar bilan ajralmasdan uyg'unlashishi kerak. Bu, albatta, taxmis yozayotgan shoirning qobiliyatiga, mahoratiga, shoirlik san'atiga bog'liqdir. Shu tariqa, ikki shoirning ijodiy kuchi bilan oldingi g'azal muhammasga (beshlikka) aylanadi, mazmun jihatdan keng, katta hajmli yangi bir asar vujudga keladi.

Taxmis yozilganda, ko'pincha, shoir o'z zamondoshi yoki o'zidan oldingilar bilan kuch sinashadi. U mening qobiliyatim, mahoratim, shoirligim ularnikidek bormikan degan savolni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu bilan birga ular o'zidan oldin yashab o'tgan ko'zga ko'ringan so'z ustalariga hurmat ko'rsatish, ularning adabiy merosini xalq orasida keng targ'ib qilish, ularning martabasini yuksaltirish kabi maqsadlarni ham ko'zda tutganlar. Buning shundayligini usta shoirlarning asarlariga taxmis tuzilganligi tasdiqlaydi. Shoirlar oddiy shoirlarga emas, balki eng yuqori, eng usta shoirlarga tenglashish, ularning nomi yonida o'z nomlarini yozishni istaganlar.

Andalib taxmislarining ko'pchiligini Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy g'azallari asosida yozgan. O'tmishda turkman xalqi bu ikki so'z



ustasining asarlarini tinmay o'qigan, ularga milliy shoir sifatida qaragan. Ularning asarlari xalqning ruhiy dunyosiga chuqur kirib borgan. Mana, shu holatdan kelib chiqib, Andalib ularning g'azallariga tez-tez murojaat qilgan, shulardan eng yaxshilarini esa, taxmis tuzishga asos qilib olgan. Andalib Navoiyning g'azali asosida "Yor uchun", "On sakkiz yoshidadir", "Ey, ko'ngil", "Chobikgina", "Uyqu kelmadi", "Quyosh", "Hijron qolmasin", "Gulob ayladi", "Giriftor men yana", "O'lturgusi", "Bekaror aylay", "Havo bila Odam", Fuzuliyning g'azali asosida esa, "Sherozlar", "Yonmasmi" va boshqa taxmislarni tuzgan. Bundan tashqari, shoir Vafoiyning, Habibiyning, Ubaydiyning, Ahmad Jomiyning g'azallariga ham taxmis yozgan. Andalib ularning g'azallarini ba'zi hollarda qisqartirgan, ularning eng muvaffaqiyatli chiqqan baytlarini olgan. Umuman, taxmis yozilganda, g'azalning bir satrini ham qoldirmasdan olish kerak degan qoida bo'lmagan. Bu masalaga shoirlar o'zlaricha yondashganlar.

Andalib taxmislarida davrning adolatsizligidan, tengsizligidan nolinadi. Bu ohang uning Navoiyning, Fuzuliyning g'azallari asosida yaratgan taxmislarining ko'pchiligida yangraydi. "Hijron qolmasin" asarida falakka murojaat qilib shunday deydi:

Umrlar ko'rdim sendan vafo, ey falakkim,

Rozi men orninga qilsang jafo, ey falakkim,

Ayla jismim tiri baroni qazo, ey falakkim,

Hijrda necha balo o'tgur manga, ey falakkim,

O'zgala ishqin havas qilmoqqa imkon qolmasin.

Shunday ohangni shoirning Fuzuliyning mashhur g'azali asosida yozgan taxmisida yanada aniq ko'rish mumkin:

Chiqibdir nomusulmonim, qilibdir qasdi-imonim.

Falakda ohim suzonim, ko'zimda ashki g'oltonim.

Ichimda dardi pinhonim, tabib, yo'qmi darmonim?

"Shabi hijron yonar jonim, to'kar qon chashmi giryonim,

Uyg'otur xalqi afg'onim, qaro baxtim uyg'onmasmi?"

Andalibning taxmislarida sevgi mavzusi ustunlik qiladi. U oshiq ma'shuqaning boshidan kechirayotgan g'am-qussalarini, ayriliq sababli to'kayotgan ko'z yoshlarini, bir-birlariga qovushish haqidagi shirin orzu-umidlarini, ma'shuqaning go'zal qiyofasini bayon etadi. Oshiq ma'shuqaning obrazini tasvirlaganda, uni sehrli, xayoliy qirralar bilan ham bezaydi. She'rlarda ma'shuqanikiga qaraganda, oshiqning boshidan kechirganlarini, o'y-fikrlarini tasvirlashga katta o'rin beriladi. U hech qachon sevgilisiga uchray olmaydi. Shunday bo'lsa-da, u undan umid uzmaydi.

Ma'shuqaning bevafofiga, shafqatsizligiga g'azablanib, undan yuz o'girmaydi. Aksincha, unga bo'lgan muhabbati, vafodorligi kuchayadi. U o'z ko'ngliga tasalli berib, boshqa go'zalga qaramaslikni uqtiradi:

Ul parishon o'zgaga tikilmagil, ey, ko'ngil!

Aylasa jabru sitam, siqilmagil, ey, ko'ngil!



Muddag'olar ta'nasidan tortilmagil,
ey, ko'ngil!

Oshiq o'z ma'shuqasining martabasini nihoyatda yuqori tutadi, uni hurmatlaydi. Uning go'zalligini esa, barcha go'zallikdan yuqori qo'yadi. Xulosa, she'rdagi asosiy qahramon bo'lgan oshiq kelajakka umidvor qaraydi. Visolga yetmasa ham, ko'ngil maqsadi hosil bo'lmasa ham, o'z tutgan maqsadidan, sevgisidan voz kechmaydi. O'sha qahramonning boshidan kechirayotgan holatlarini ta'sirli bayon etish uchun, o'z ahvolini Layliyu Majnunnikiga, Shiriniyu Farhodnikiga, Arziyu Qamornikiga va boshqalarga qiyoslaydi va ularnikidan ham ahvolining og'irligini xabar beradi. Oshiq-ma'shuqlik borasida esa, o'zini yanada yuqori tutadi.

O'z navbatida, Andalibning g'azallariga ham taxmis tuzgan shoirlar bo'lgan. Shoirning "Chendan-chendan" nomli g'azaliga Muhlisiy, "Ne balo hub" nomli g'azaliga esa, Munis taxmis tuzgan. Umuman, Andalibning badiiy ijodi o'zidan keyingi shoirlarning ko'pchiligining diqqatini o'ziga tortgan. Qoraqalpoq shoiri Berdimurot Berdaq

"Kitob ko'rdim Andalibdan", "Ne so'zlarni aytib Andalib, bul ham o'tdi..." deb, uni o'ziga ustoz deb bilgan bo'lsa, Ahmad Donish va Zokirjon Furqat uning she'rlariga tazmin tuzgan, taxmis yozgan. Bu aytilganlar Andalibning she'r san'ati borasida ko'lamining keng bo'lganligini, uning Sharq xalqlari orasida katta shuhrat qozonganligini ko'rsatadi.

Andalibning she'rlari o'z davri uchun yuksak adabiy-badiiy qimmatga, siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ular bizning kunlarimizda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Nurmuhammet Andalib XVIII asr turkman adabiyotining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biridir. U dostonchilik, g'azalchilik, taxmis yozish va tarjimonlik sohalarida katta muvaffaqiyat qozongan. Uning asarlari nafaqat o'z davrida, balki hozirgi zamonda ham adabiy-badiiy qimmatini saqlab kelmoqda. Andalib turkman klassik poeziyasini Sharq adabiy makoniga bog'lagan shoir sifatida alohida o'ringa ega. Uning ijodi xalq ruhining, muhabbatning, adolatsizlikka qarshi kurashning badiiy ifodasidir.

References:

1. Atayev K. XVIII asr Turkman adabiyoti. Ashxobod, 2010.
2. XVIII – XIX asr turkman adabiyoti tarixiga oid ocherklar, Ashxobod: Ylym, 1967.
3. Bekmurodov A. Andalib va O'g'uznomachilik an'anasi. – Ashxobod: Ylym, 1987.
4. Layli-Majnun. TDN, – Ashxobod, 1956.
5. Saylanan eserler. TDN. – Ashxobod: 1963.
6. Lirika, – Ashxobod: Ylym, 1976.
7. <https://kitaphana.turkmenistan.gov.tm>
8. <https://turkmenheritage.gov.tm>
9. <https://wikipedia.org>
10. <https://kitap.gov.tm>